


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI

“Kiritdi”

O'zbekiston davlat
san'at va madaniyat
instituti rektori




“Kelishildi”

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lif, fan va
innovatsiyalar vazirligi



“Tasdiqlayman”

O'zbekiston Respublikasi
Madaniyat vazirligi



KASBIY (IJODIY) IMTIHONLAR DASTURI VA BAHOLASH MEZONLARI

60211200 – Rejissyorlik: estrada va ommaviy tomoshalar rejissyorligi ta'lif
yo'nalishi uchun

1. Rejissura fanidan
2. Aktyorlik mahorati fanidan

Dastur O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Badiiy, o‘quv-uslubiy Kengashida ko‘rib chiqilgan va ma’qullangan. 2024-yil _____ -sonli majlis bayoni.

Tuzuvchilar:

Sh.Sh.Rasulov – O‘zDSMI “Estrada va ommaviy tomoshalar san’ati” kafedrasi dotsenti

Taqrizchilar:

Z.D.Hamrayeva – O‘zbekiston davlat yosh tomoshabinlar teatri direktori, kadrlar buyurtmachisi

M.R.Yusupova – O‘zDSMI “Estrada va ommaviy tomoshalar san’ati” kafedrasi professori, san’atshunoslik fanlari nomzodi

Kirish

60211200 – Rejissyorlik (estrada va ommaviy tomoshalar rejissyorligi) bakalavriat ta’lim yo‘nalishiga kiruvchi abituriyentlarning kasbiy (ijodiy) imtihoni, hujjalarni qabul qilish va kirish imtihonlar “O‘zbekiston Respublikasi oliy o‘quv yurtlariga qabul qilish qoidalari”ga muvofiq o‘tkaziladi.

Ixtisoslik bo‘yicha kirish imtihonlar, har bir ixtisoslik uchun ta’kidlangan qabul talablariga muvofiq ravishda o‘tkaziladi.

Ixtisoslik bo‘yicha ijodiy imtihonning ketma-ketligi, har bir Oliy o‘quv yurtining qabul komissiyasi tomonidan o‘rnataladi va har yili qabul qilish qoidalari ko‘rsatiladi.

60211200 – Rejissyorlik (estrada va ommaviy tomoshalar rejissyorligi) bakalavriat ta’lim yo‘nalishiga o‘qishga kirayotgan abituriyentlar ijodkorlik, ijrochilik, tashkilotchilik, san’at va madaniyat yo‘nalishida fikrlay olish qobiliyatiga, asar tanlashda zaruriy jihatlarni bilish, tushunish, his qilish iqtidoriga ijroga ega bo‘lishi kerak.

Fanning maqsadi va vazifalari

60211200 – Rejissyorlik (estrada va ommaviy tomoshalar rejissyorligi) bakalavriat ta’lim yo‘nalishda kasbiy (ijodiy) imtihonlar abituriyentlarning rejissura va aktyorlik mahorati fanlaridan ijodiy hamda amaliy ko’nikma va malakalarini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi.

Rejissura fani bo‘yicha

Rejissura fani bo‘yicha imtihonlarda o‘qishga kirayotgan abituriyent rejissura sohasiga oid nazariy dastlabki bilimlarga ega bo‘lishi lozim. Abituriyentning ijodiy tafakkuri, fikrlash qobiliyati, tasavvuri, fantaziysi, adabiy-badiiy saviyasi, fikrlashda mantiqiylilik va izchillik xususiyatlari, shuningdek kitobxonlik xususiyatiga ega bo‘lishi lozim.

Ijodiy suhbat jarayonida bo‘lib, suhbat keng doiradagi savollar bo‘yicha o‘tkaziladi va suhbat jarayonida ixtisoslik bo‘yicha abituriyentning fikrlashi, bilim doirasi, qiziqishi, kasbiy tasavvuri, tekshiriladi.

Suhbat jarayonida abituriyentning bo‘lajak kasbi xususida, rejissorlikning o‘ziga xos tomonlari, estrada, bayram va tomosha haqida tushuncha, mazkur sohaga bo‘lgan abituriyentning individual qobiliyati aniqlanadi.

Suhbat – o‘qishga kirayotgan shaxsni ijodiy maylini aniqlashga, davlatimizning ichki va tashqi siyosati borasidagi bilimlarini to‘g‘ri baholashga, madaniyat va san’at sohasidagi izchil ijobjiy o‘zgarishlarga, badiiy va sohaga oid adabiyotlar haqidagi tushunchasiga, teatr va kino san’ati bo‘yicha asosiy savollarga to‘g‘ri oriyentatsiya qila olishini aniqlashga imkoniyat yaratadi. Shuningdek, o‘zi yoqtirgan rejissoring ijodiy faoliyati haqida fikr so‘raladi.

Abituriyentning ijodiy salohiyati, dunyoqarashi, bilimi, badiiy va dramaturgiya asarlarini o‘qiganligi, rejissuraga oid nazariy va amaliy bilimlari, sahnaviy madaniyati, estetik didi, muomala munosabati, fikrlash doirasining kengligi, mustaqil

fikrlashi, muayyan tafakkur uslubiga, og‘zaki va yozma nutqini aniq bayon qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi, tashkilotchilik va boshqaruvchilik qobiliyati, abituriyentning tasavvur va fantaziysi, sohaga qiziqishi, shaxsning o‘ziga xosligi, ma’naviy-axloqiy xislatlari, rejissorlik etyudi tekshiriladi.

Aktyorlik mahorati fani bo‘yicha

Aktyorlik mahorati bo‘yicha imtihonlarda abituriyent turli xil janrdagi adabiy asarlarni ijro qilishi kerak. Ko‘proq klassik, zamonaviy, milliy va chet el adabiyoti namunalaridan ko‘rsatilishi maqsadga muvofiqdir.

Ijro etiladigan asarlar bir-biridan janr va mazmuni bo‘yicha ajralib turishi kerak, bu abituriyentning qobiliyatini va ijodiy diapazonining kengligini aniqlashga imkoniyat yaratadi.

Abituriyent bu bosqichda quyidagi dasturlarni tayyorlashi lozim:

- 1) masal (I.A.Krilov, S.Mixalkov, M.Xudoyqulov, A.Obidjon va x.k.);
- 2) monolog (biron bir pyesa qahramonining monologi);
- 3) kuzatuv (hayvonot xulq atvori);
- 4) yakka etyud - (abituriyentning yakka o‘zi bilan sodir bo‘layotgan so‘zsiz voqeali sahna ko‘rinishi);
- 5) estrada nomerlari (raqs, qo‘sish, plastika, pantomima, parodiya (taqlid san’ati), sirk nomerlari).

Bundan tashqari pedagoglar tomonidan tempo-ritm, diqqat, reaksiya, xotira va improvizatsiyalarni tekshirish uchun mashqlar beriladi.

Imtihonda ijro qilinayotgan asarni tubdan tushinish, eshitayotganlarni qiziqtirish, o‘ziga jalb qilish, tasavvur qila olishi, kuzatuvchanligi, ta’sirchanlik va ehtirosi, obrazli fikr yuritish, eslab qolish qobiliyati tekshiriladi.

Suhbat jarayonida ixtisoslik bo‘yicha abituriyentning fikrlashi, bilim doirasi tekshiriladi. Suhbat – abituriyentning ijodiy tayyorgarlikni aniqlashga, san’at va madaniyat sohasidagi izchil ijobjiy o‘zgarishlarga, badiiy va sohaga oid adabiyotlar haqidagi tushunchasiga, teatr va estrada san’ati bo‘yicha asosiy savollarga to‘g‘ri oriyentatsiya qila olishini aniqlashga imkoniyat yaratadi.

Abituriyent bilimiga qo‘yiladigan talablar

Rejissura fanidan abituryient rejissura sohasiga oid nazariy dastlabki bilimlarga ega bo‘lishi lozim. Abituriyent ijodiy tafakkuri, fikrlash qobiliyati, tasavvuri, fantaziysi, adabiy-badiiy saviyasi, fikrlashda mantiqiylik va izchillik xususiyatlari, shuningdek kitobxonlik xususiyatiga ega bo‘lishi lozim. Abituriyent bilan ijodiy suhbat keng doiradagi savollar bo‘yicha o‘tkaziladi va suhbat jarayonida ixtisoslik yuzasidan abituriyentning fikrlashi, bilim doirasi, qiziqishi, kasbiy tasavvuri tekshiriladi. Suhbat jarayonida abituriyentning bo‘lajak kasbi xususida, rejissorlikning o‘ziga xos tomonlari, estrada, bayram va tomosha haqida tushuncha, mazkur sohaga bo‘lgan abituriyentning individual qobiliyati aniqlanadi. Abituriyentning ijodiy salohiyati, dunyoqarashi, bilimi, badiiy va dramaturgiya asarlarini o‘qiganligi, rejissuraga oid nazariy va amaliy bilimlari, sahnaviy madaniyati, estetik didi, muomala munosabati, fikrlash doirasining kengligi, mustaqil

fikrlashi, muayyan tafakkur uslubiga, og‘zaki nutqini aniq bayon qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi, tashkilotchilik va boshqaruvchilik qobiliyati, abituriyentning muomala madaniyati, tasavvur va fantaziysi, sohaga qiziqishi, shaxsning o‘ziga xosligi, ma’naviy-axloqiy xislatlari, rejissorlik etyudi tekshiriladi.

Aktyorlik mahorati fanidan abituriyent quyidagi ijodiy dasturni namoyish etishi kerak: masal ijrosi, monolog ijrosi (biron bir pyesa qahramonining monologi); kuzatuv (hayvonot xulq atvori), yakka etyud (abituriyentning yakka o‘zi bilan sodir bo‘layotgan so‘zsiz voqeali sahna ko‘rinishi) ijrosi, estrada nomerlari (raqs, plastika, pantomima, parodiya (taqlid san’ati), sirk nomerlari). Imtihonda ijo qilinayotgan asarni tubdan tushinish, eshitayotganlarni qiziqtirish, o‘ziga jalb qilish, tasavvur qila olishi, kuzatuvchanligi, ta’sirchanlik va ehtirosi, obrazli fikr yuritish, eslab qolish qobiliyati tekshiriladi. Bundan tashqari abituriyent pedagoglar tomonidan tempo-ritm, diqqat, reaksiya, xotira va improvizatsiyalarni tekshirish uchun mashqlar bajarishi lozim. Suhbat – abituriyentning ijodiy tayyorgarlikni aniqlashga, san’at va madaniyat sohasidagi izchil ijobiy o‘zgarishlarga, badiiy va sohaga oid adabiyotlar haqidagi tushunchasiga, teatr va estrada san’ati bo‘yicha asosiy savollarga to‘g‘ri oriyentatsiya qila olishini aniqlashga imkoniyat yaratadi.

Kasbiy (ijodiy) imtihonda abituriyent tomonidan bajarilgan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi:

Rejissura

Nº	Talabning mazmuni	Maksimal ball
1.	Abituriyentning ijodiy salohiyati, dunyoqarashi, bilimi, badiiy va dramaturgiya asarlarini o‘qiganligi	15
2.	Rejissuraga oid nazariy va amaliy bilimlari	30
3.	Sahnaviy madaniyati, estetik didi, muomala munosabati	5
4.	Fikrlash doirasining kengligi, mustaqil fikrlashi, muayyan tafakkur uslubiga, og‘zaki va yozma nutqini aniq bayon qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi	10
5.	Tashkilotchilik va boshqaruvchilik qobiliyati	5
6.	Jozibasi, muomala madaniyati, tasavvur va fantaziysi, sohaga qiziqishi	5
7.	Shaxsning o‘ziga xosligi, ma’naviy-axloqiy hislatlari	5
8.	Rejissyorlik etyudi	18
Jami		93 ball

Aktyorlik mahorati

Nº	Talabning mazmuni	Maksimal ball
1	Abituriyentning ijodiy salohiyati va sahnaviy tarovati (insoniy jozibadorligi, xislati, tabiat, yoshi, tashqi ko‘rinishi, tananing nuqsonlardan xoli ekanligi, bo‘yining balandligi, ichki madaniyati, kasbiy tajribasi)	10
2	Sahna madaniyati, odob-axloqi, muomala va estetik didi	5
3	Ijro uslubi va mahorati (she’r, masal, monolog, kuzatuv)	10
4	Ijro mahoratidagi ta’sirchanligi, tabiiyligi, o‘ziga xosligi	10
5	Abituriyentning sahnaviy tasavvuri (hayotiy (real) muhitda, turli sharoitlarda abituriyentning berilgan vaziyatda qahramon o‘rnida o‘zini ko‘ra bilish salohiyati) va sahnaviy fantaziyası (haqiqiy hayotda mavjud bo‘lmagan, ehtimoldan uzoq bo‘lgan (irreal) sharoitlarda o‘zini ko‘ra olish qobiliyatı)	5
6	Abituriyentning improvizatsiyaga moyilligi	3
7	Etyud ijrosi (hayotdan olingan bir voqeani dialoglarsiz xattiharakatda ijro eta olishi)	5
8	Estrada nomerlari (raqs, pantomima, parodiya (taqlid san’ati), sirk nomerlari)	5
9	Abituriyentning plastikasi (nafis harakat, tana harakatlarining ifodaviy ta’sirchanligi, ma’nodorligi)	5
10	Ijodiy suhbat	5
Jami:		63 ball

Kasbiy (ijodiy) imtihonlarni o‘tkazish tartibi

60211200 – Rejissyorlik (estrada va ommaviy tomoshalar rejissyorligi) yo‘nalishiga hujjat topshirgan abituriyent jadval asosida belgilangan kunda 1 akademik soatgacha vaqt davomida ijodiy imtihonini topshiradi. Ijodiy (kasbiy) imtihonlar maxsus auditoriyalarda bo‘lib o‘tadi.

Apellyatsiya tartibi

Abituriyentlar tomonidan kasbiy (ijodiy) imtihon natijalari bo‘yicha institut qabul komissiyasining apellyatsiyalar bilan ishslash hay’atiga natijalar e’lon qilingan kundan boshlab 24 soat davomida murojaat qilishlari mumkin.

Murojaat mazmunida faqat o‘zining ballari haqida bo‘lsa qabul qilinadi, lekin boshqa abituriyentlar haqida yozilgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.

Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlari hamda axborot manbaalari

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birligida barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 56 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 32 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 488 b.
4. Mirziyoyev Sh.M Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. - 592 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.
6. Madaniyat va san'at atamalarining izohli lug'ati. B.S.Sayfullayev tahriri ostida. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2015. 352-b.
7. Ahmedov F.E. Ommaviy bayramlar rejissurasi asoslari. – Toshkent: Aloqachi, 2008. – 424 b.
8. Rizayev Sh. Sahna ma'naviyati. – Toshkent: Ma'naviyat, 2000. – 176 b.
9. Sayfullayev B.S. Tomosha san'ati tarixi va nazariyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2014. 152-b.
10. Tursunov T. XX asr o'zbek teatr tarixi. – Toshkent: Art-press, 2010. - 568 b.
11. Mahmudov J., Mahmudova X. Rejissura asoslari. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. - 224 b.
12. Mamatqosimov J.A. Ommaviy bayramlar rejissurasida sahna madaniyati. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. – 208 b.
13. Umarov M. Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2009. – 324 b.
14. Sayfullayev B.S., Mamatqosimov J.A. Aktyorlik mahorati. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – 388 b.
15. Stanislavskiy K.S. Aktyorning o'z ustida ishlashi. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2010. – 468 b.
16. Yusupova M.R. va boshqalar. Aktyorlik mahorati. – Toshkent: O'zR FA Asosiy kutubxonasi bosmaxonasi, 2015. - 128 b.
17. Mahmudov J. Aktyorlik mahorati. – Toshkent: Bilim, 2005. – 192 b.
18. Ahart J. The Director's Eye: A Comprehensive Textbook for Directors and Actors, Meriwether PublishingLtd., Printed in the United States of America, 2001.